

“Mikrokreditbank”
aksiyadorlik-tijorat banki
Boshqaruvining
2026-yil “ 1 ” aprel dagi
513 sonli qarori bilan
“TASDIQLANGAN”
Boshqaruv raisi v.b



O. Butayev
(ro'yxat raqami 011-10/482,
2026-yil “ 8 ” aprel)

**“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining korrupsiya xavflarini
baholash va aniqlash uslubi to'g'risida”gi**

NIZOM

(yangi tahrirda)

Toshkent 2026

“Mikrokreditbank” ATB
Boshqaruvining
2026-yil “1” aprel 513 5 **dagi**
sonli qaroriga
ilova

**“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining korrupsiya xavflarini
baholash va aniqlash uslubi to‘g‘risida”gi Nizom**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. “Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankning korrupsiya xavflarini baholash va aniqlash uslubi to‘g‘risida”gi Nizom (keyingi o‘rinlarda - Nizom) korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi (keyingi o‘rinlarda - KQKT) sohasidagi xalqaro tashkilotlarning tavsiyalari va yetakchi jahon amaliyotlari, shu jumladan ISO 37001:2016 “Korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimlari - Qo‘llash bo‘yicha talab va tavsiyalar” xalqaro standartining talab va tavsiyalari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi va “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi qonunlariga, KQKT sohasidagi boshqa normativ-huquqiy hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida to‘g‘risida”gi qarori, “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni hamda “Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankning (keyingi o‘rinlarda – bank) Ustavi va ichki qoidalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Mazkur Nizom bank faoliyatida korrupsiya xavflarini aniqlash va baholash tartibini belgilaydi.

3. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

korrupsiya xavfi – xodimning o‘z mansabidan yoki mansab mavqeidan o‘zining shaxsiy manfaatlarini yoki boshqa shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof asoslar va shartlar asosida korrupsiya harakatlar sodir etishi ehtimoli;

qoldiq xavf – aniqlangan korrupsiya xavfni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rilganidan keyin qoladigan xavf;

korrupsiya xavfini baholash – bu bank faoliyatini (vazifalari va funksiyalarini) tahlil qilish, mavjud korrupsiya xavflarni aniqlash va ushbu xavflar darajasini baholash faoliyati;

korrupsiya xavflar xaritasi – bank faoliyatida amalga oshiriladigan vazifalar va funksiyalar (jarayonlar), funksiyalarni (jarayonlarni) tartibga soluvchi mexanizmlar, funksiyalarni (jarayonlarni) amalga oshirish uchun mas‘ul lavozim

bilan bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan korrupsiya xavflarning tavsifi va darajasini o'z ichiga olgan hujjat, korrupsiya xavflarni bartaraf etish bo'yicha choralari, qoldiq korrupsiya xavflari darajasi, bartaraf etish choralari amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan mansabdor shaxslar ko'rsatilgan hujjat;

manfaatlar to'qnashuvi — shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o'z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to'qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan (ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi) vaziyat;

korrupsiya — shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik – bu sodir etilganligi uchun qonunda javobgarlik nazarda tutilgan korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan qilmish;

Korrupsiyaga qarshi nazorat departamenti (keyingi o'rinlarda - KQND) – bankda korrupsiyaga qarshi kurashish nazoratni amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan maxsus bo'linma;

xodim – bank bilan mehnat munosabatlariga kirishgan jismoniy shaxs.

4. Quyidagilar mazkur Nizomning maqsadlari hisoblanadi:

bankning korrupsiya xavfiga eng ko'p duchor bo'ladigan vazifa va funksiyalarini aniqlash;

korrupsiya xavflarni baholash va ularni hujjatlashtirish;

korrupsiya xavflarini minimallashtirish va bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

5. Korrupsiya xavflarni aniqlash va baholash bo'yicha ishlar doimiy ravishda olib boriladi.

6. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga (keyingi o'rinlarda - Agentlik) davlat tashkilotlarining korrupsiya xavflarini baholash va bartaraf etish bo'yicha faoliyatini takomillashtirish hamda bu boradagi kamchiliklarga yo'l qo'ymaslik yuzasidan tegishli topshiriqlar berilsin.

2-bob. Korrupsiya xavflarni aniqlash tartibi

7. Korrupsiya xavflarni aniqlash va baholash bankning barcha tarkibiy va hududiy bo'linmalarini qamrab olishi kerak. Korrupsiya xavflarni aniqlash va baholash KQND tomonidan amalga oshiriladi.

8. Bankning korrupsiya xavflarga eng ko'p duchor bo'lgan bo'linmalarining faoliyati (vazifalari va funksiyalari) tavsifi ushbu Nizomning 1-ilovasiga muvofiq hujjatlashtiriladi. Bank bo'linmalari faoliyatidagi (vazifalari va funksiyalaridagi) korrupsiya xavflari ichki va tashqi axborot manbalari asosida aniqlanadi.

9. Ichki axborot manbalariga quyidagilar kiradi:

bank bo'linmalari faoliyatining (vazifasi va funksiyalari) huquqiy asoslari;

“Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi qonunning 17-moddasida nazarda tutilgan ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyalar;

davlat xaridlari jarayonida olingan takliflar, xarid komissiyasi majlislarining bayonnomalari, tuzilgan shartnomalar;

Ichki audit departamentining xizmat tekshiruv natijalari;

Odob-axloq komissiyasi majlislarining bayonnomalari;

KQNDning xizmat tekshiruvlari natijalari.

10. Tashqi axborot manbalariga quyidagilar kiradi:

aloqa kanallariga qilingan murojaatlar va bank faoliyatidagi qoidabuzarliklar to‘g‘risidagi statistik ma’lumotlar;

jismoniy va yuridik shaxslarning bank xodimining faoliyatidagi mavjud manfaatlar to‘qnashuvi yoki ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi murojaatlari yoki xabarlar;

tijorat tashkilotlarining affillangan shaxslari va yakuniy naf oluvchilari (benefitsiarlari) ro‘yxatlari;

O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining tadbirkorlik subyektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish moduli;

“FHDYO Yagona elektron arxivi” axborot tizimi;

“Yagona milliy mehnat tizimi” idoralararo apparat-dasturiy majmui;

Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi;

maxsus vakolatli davlat organi tomonidan o‘tkazilgan o‘rganish natijalari bo‘yicha kiritilgan taqdimnoma;

Agentlik yoki boshqa davlat tashkilotlari tomonidan bank faoliyati (vazifalari va funksiyalari) yuzasidan o‘tkaziladigan so‘rovlar, shu jumladan ijtimoiy so‘rovlar natijalari;

huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan taqdim etilgan materiallar va boshqalar.

11. Korrupsiya xavflarni aniqlashda quyidagi holatlarni tahlil qilinishi lozim:

xodim tomonidan sodir etilgan korrupsiya huquqbuzarlik;

o‘z vaqtida qaror qabul qilmaslik, asossiz ravishda tez qaror qabul qilish;

hujjatlarga, elektron ma’lumotlar bazalariga bila turib soxta ma’lumotlarni kiritish;

rasmiy vakolatlarni amalga oshirishda manfaatlar to‘qnashuvi;

davlat tashkiloti faoliyatini (vazifasi va funksiyalarini) amalga oshirishda jismoniy va yuridik shaxslar uchun sun'iy to'siqlarning mavjudligi;

xodimlar tomonidan xizmatlar ko'rsatishda mijozlar uchun sun'iy to'siqlar va qog'ozbozlik holatlarini yaratish;

vakolatlarni amalga oshirishda mahalliychilik, homiylik va qarindoshchilik kabi holatlarning mavjudligi.

12. Bank xodimining ommaviy axborot vositalariga, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog'iga joylashtirilgan mavjud yoki ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi holatlari ular to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash va o'rganish orqali aniqlanadi.

13. Aniqlangan korrupsiya xavflar to'g'risidagi ma'lumotlar amaldagi tartiblarni tahlil qilish hamda korrupsiyaning oldini olish va minimallashtirishga qaratilgan yangi tartibotlarni ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

3-bob. Korrupsiya xavflarni baholash

14. Korrupsiya xavflarni baholash muayyan boshqaruv jarayonida yuzaga keladigan, bank manfaatlariga zid ravishda imtiyozlar olish uchun xizmat vazifalarini suiste'mol qilishga imkon beradigan shartlar va holatlarni aniqlash uchun amalga oshiriladi.

15. Korrupsiya xavflari darajasi quyidagi o'lchanadigan ko'rsatkichlar bo'yicha baholanadi:

past;
o'rta;
yuqori.

16. Korrupsiya xavflari darajasini baholash ushbu Nizomning 2-ilovasida ko'rsatilgan mezonlar asosida amalga oshiriladi.

17. Xatarlarni baholash tartibi bir nechta ketma-ket bosqichlardan iborat:

tayyorgarlik bosqichi:

korrupsiya xavflarni baholash to'g'risida qaror qabul qilish;
baholashni o'tkazish rejasini belgilash;
baholash uchun mas'ul shaxslarni tayinlash;
baholash bilan bog'liq bank xodimlarining vakolatlari va majburiyatlarini aniqlash; bank faoliyatining yo'nalishlari ro'yxatini tuzish;

korrupsiya xavflarni aniqlash bosqichi:

har bir tahlil qilinayotgan jarayonda muhim nuqtalarni aniqlash va har bir muhim nuqtada korrupsiya xavflarni amalga oshirish imkoniyatlarining umumiy tavsifi;

korrupsiya xavflarni tahlil qilish bosqichi:

muhim nuqtada korrupsiyaga oid huquqbuzarlikni sodir etishning mumkin bo'lgan usullarining batafsil tavsifini tayyorlash;

korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishda ishtirok etishi mumkin bo'lgan bank xodimlarining lavozimlari ro'yxatini shakllantirish;

korruptsiya xavflarni minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish bosqichi:

barcha mumkin bo'lgan korruptsiya xavflarni minimallashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash;

xavflarni baholash natijalarini tuzish, kelishish, tasdiqlash bosqichi:

bankning korruptsiya xavflar matritsasi va korruptsiya xavflari bilan bog'liq lavozimlar ro'yxatini shakllantirish va KQND rahbariga tasdiqlash uchun taqdim etish.

18. Korruptsiya xavflar yuqori bo'lishi mumkin bo'lgan faoliyat sohaslarini aniqlashda, birinchi navbatda, quyidagi jarayonlarga e'tibor qaratish lozim:

bank ehtiyojlari uchun tovarlar va xizmatlarni sotib olish;

kreditlar, xususan, imtiyozli kreditlar berish;

ish haqi jamg'armasini taqsimlash va xodimlarga mukofot to'lash bo'yicha qarorlar qabul qilish;

bank moliyasini taqsimlash bilan bog'liq boshqa har qanday faoliyat sohalari.

4-bob. Korruptsiya xavflarni bartaraf etish chora-tadbirlari

19. Har bir aniqlangan korruptsiya xavfi uchun uni minimallashtirish chora-tadbirlari ishlab chiqilishi shart.

20. Korruptsiya xavflarni minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqishda quyidagi tamoyillarga amal qilish tavsiya etiladi:

har bir chora aniq va to'g'ri shakllantirilgan bo'lishi, uni amalga oshirish jarayonida ishtirok etayotgan xodimlar choraoning mazmunini, kutilayotgan natijani hamda uning korruptsiya xavfini minimallashtirish bilan bog'liqligini tushunishlari lozim;

har bir chora uchun uni amalga oshirish muddati yoki davriyligi belgilanishi zarur;

har bir chora uchun uning ijrosiga mas'ul shaxs aniqlanishi va korruptsiyaga qarshi kurashish dasturida belgilab qo'yilishi kerak.

21. Korruptsiya xavflarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar quyidagilarni o'z ichiga oladi, lekin ular bilan cheklanmaydi:

bank ihki qoidalar loyihalarini ishlab chiqish;

rahbariyat tomonidan korruptsiyaga nisbatan murosasiz munosabatning namoyon bo'lishi;

inson omilini kamaytirish, bank faoliyatining (vazifasi va funksiyalari) shaffofligi va raqamlashtirilishini ta'minlash;

rasmiy veb-sayt va boshqa ommaviy axborot vositalarida bankning korruptsiyaga qarshi faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni joylashtirish va tarqatish;

bank tomonidan korruptsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan tushuntirish ishlarini olib borish, profilaktik so'rovlar o'tkazish;

korruptsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha ichki qoidalariga xodimlar tomonidan rioya etilishini monitoring qilish;

korruptsiya xavfini bartaraf etishga aratilgan, qonunchilikka zid bo'lmagan boshqa choralarni qo'llash.

22. Ushbu Nizomning 20-bandida ko'rsatilgan chora-tadbirlar asosida qoldiq xavf darajasini baholash ushbu Nizomning 2-ilovasida keltirilgan mezonlar asosida amalga oshiriladi.

1-§. Korruptsiya xavflar xaritasini ishlab chiqish

23. Korruptsiya xavfini aniqlash va baholash natijalariga ko'ra, KQND har yili ushbu Nizomning 3-ilovasiga muvofiq bankning Korruptsiya xavflari xaritasini ishlab chiqadi, belgilangan tartibda tasdiqlaydi 1-fevraliga "e-anticor.uz" elektron platformasiga joylashtiradi.

Korruptsiya xavflari xaritasida quyidagilar aks ettiriladi:

aniqlangan korruptsiya xavflarining tavsifi;

ularning yuzaga kelish ehtimoli va ta'sir darajasi;

mavjud nazorat mexanizmlari;

qoldiq xavf darajasi;

xavflarni minimallashtirish bo'yicha belgilangan chora-tadbirlar;

ijro uchun mas'ul bo'lgan tarkibiy bo'linmalar va mansabdor shaxslar.

24. "e-anticor.uz" elektron maydonchasida joylashtirilgan korruptsiya xavflar xaritasi asosida KQND tomonidan avtomatik shakllantiriladigan ma'lumotlar asosida quyidagi hujjatlar ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi:

korruptsiyaga qarshi kurashish dasturi;

korruptsiya xavfi yuqori bo'lgan lavozimlar.

25. Korruptsiyaga qarshi kurashish dasturida aniq maqsad va vazifalar, amalga oshirish mexanizmlari, muddatlar, mas'ullar hamda kutilayotgan natijalar ko'rsatiladi.

26. Korruptsiya xavfi yuqori bo'lgan lavozimlar ro'yxati tegishli tarkibiy bo'linmalar kesimida shakllantiriladi hamda ushbu lavozimlarda faoliyat yuritayotgan xodimlar uchun kuchaytirilgan ichki nazorat va monitoring mexanizmlari joriy etiladi.

27. Korruptsiya xavflari xaritasi har yili qayta ko'rib chiqiladi, zarurat tug'ilganda esa yil davomida aniqlangan yangi xavflar asosida unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

2-§. Korruptsiya xavflar bilan bog'liq lavozimlar ro'yxatini shakllantirish

28. Korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarga ko'proq moyil bo'lgan asosiy lavozimlar mehnat faoliyatining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadigan qarorlar qabul qilish erkinligining yuqori darajasini, jismoniy va yuridik shaxslar bilan aloqalar intensivligini hisobga olgan holda belgilanadi.

29. Mansabdor shaxsning korrupsiya funksiyalarni bajarishdagi korrupsiya xatti-harakatlarini tavsiflovchi belgilar quyidagilar bo'lishi mumkin:

qarorlar qabul qilishda masalani belgilangan muddatdan tashqarida hal etishni asossiz ravishda kechiktirish, jiddiy miqdordagi muntazam murojaatlar mavjud bo'lganda jismoniy yoki yuridik shaxsga nisbatan masalani navbatdan tashqari hal qilish;

mansabdor shaxs, uning qarindoshlari va boshqa uchinchi shaxslarning moddiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq shaxsiy masalalarni hal qilishda o'z mansab vakolatlaridan foydalanish;

imtiyozli bank xizmatlarini ko'rsatish uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan imtiyozlar berish (oshna-og'aynichilik, qarindosh-urug'chilik);

o'z xizmat vazifalarini bajarish chog'ida olingan ma'lumotlardan, agar bunday ma'lumotlar rasmiy tarzda tarqatilishi shart bo'lmasa, shaxsiy manfaatlarini yoki uchinchi shaxslarning manfaatlarini ko'zlab foydalanish;

jismoniy va yuridik shaxslardan taqdim etilishi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan ma'lumotlarni taqdim etishni talab qilish;

axborot resurslariga ruxsatsiz kirishga urinish yoki amalga oshirish;

xizmat vazifalariga muvofiq qaror qabul qilishni talab qiladigan hollarda harakatsizlik.

30. Korrupsiya xavflarni baholash natijalarining almashtirilishi korrupsiya xavflar bilan bog'liq bo'lgan lavozimlar ro'yxatini aniqlash uchun asos bo'ladi.

31. Tarkibiy bo'linmalarning rahbarlari o'z faoliyati, jarayonlari, loyihalari bo'yicha korrupsiya xavfga eng ko'p duchor bo'lgan funksiyalar ro'yxatini belgilaydilar. Ushbu ro'yxat bank Boshqaruvi tomonidan korrupsiya xavflar xaritasida tasdiqlanadi.

5-bob. Yakuniy qoidalar

32. KQND bankning korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirishda qo'llaniladigan korrupsion xavfning o'tkazilgan baholashi bo'yicha barcha hujjatlashtirilgan ma'lumotlarni saqlaydi.

33. Mazkur Nizom bank Boshqaruvi qarori bilan tasdiqlanib va o'rnatilgan tartibda ro'yxatga olingandan so'ng kuchga kiradi.

34. Mazkur Nizomga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish, o'z kuchini yo'qotgan deb topish bank Boshqaruvi qaroriga asosan amalga oshiriladi.

35. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan taqdirda, mazkur Nizomga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgunga qadar amaldagi qonunchilik talablariga rioya etiladi.

36. Bankning tashkiliy tuzilmasi o'zgartirilishi munosabati bilan mazkur Nizomda keltirilgan tarkibiy bo'linmalar qisqartirilgan, nomlari o'zgargan holatlarda,


ushbu tarkibiy bo'linmalarga taalluqli qoidalari ularning vazifalari va majburiyatlari o'tkazilgan (voris) tarkibiy bo'linmalar tomonidan amalga oshiriladi.

37. Mazkur Nizom shartlari buzilgan taqdirda aybdor shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

38. Mazkur Nizom kuchga kirgan kundan bank Boshqaruvining 2023-yil 14-avgustdagi 113-1-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Mikrokreditbank" ATBning korrupsiya xavflarini baholash va aniqlash uslubi to'g'risidagi Nizom o'z kuchini yo'qotadi.

Blummi

Shaxmatov



“Mikrokreditbank” ATBning korrupsiya xavflarini baholash va aniqlash uslubi to’g’risidagi nizomga 1-Illova

Bank bo’linmalari faoliyati (vazifalari va funksiyalari)ning ta’rifi

№	Funksiyaning nomi	Funksiya ichida bajariladigan jarayon	Tartibotlar bajarilishi uchun mas’ul shaxslar (ularning F.I.SH va lavozimi)
“Mikrokreditbank” ATB			
1.1. Bankning tuzilmaviy bo’linmasi			
1.1.1.			



Korrupsiya xavf darajasini baholash mezonlari

Korrupsiya xavf darajasi	Mezonlar
Yuqori*	Bank faoliyati (vazifalari va funksiyalari) avtomatlashtirilmaganligi
	Bank faoliyati (vazifasi va funksiyasi) tartibga solinmaganligi
	nazoratsiz ish joyida jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan bevosita aloqa qilish imkoniyati mavjudligi
	bank faoliyati (vazifalari va funksiyalari) doirasida qaror loyihasini tayyorlash, ko'rib chiqish va qabul qilishda bir shaxsning ishtiroki
	bank faoliyatini (vazifalari va funksiyalarini) amalga oshirish jarayonida korrupsiya harakati sodir etilgan bo'lsa (jinoiyat sodir etilganligi sud tomonidan tasdiqlanganligi)
O'rtacha*	Bank faoliyati (vazifalari va funksiyalari) qisman avtomatlashtirilganligi
	Bank faoliyati (vazifalari va funksiyalari) qisman tartibga solinganligi
	nazorat qilish jarayonida ish joyida jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan bevosita muloqot qilish imkoniyati mavjudligi
	davlat tashkiloti faoliyati (vazifalari va funksiyalari) doirasida qaror loyihasini tayyorlash, ko'rib chiqish va qabul qilishda ikki shaxsning ishtirok etishi
	davlat tashkiloti faoliyati (vazifalari va funksiyalari) jarayonida korrupsiya qilmishi sodir etilganligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud bo'lsa (jinoiyat sodir etilganligi sud tomonidan tasdiqlanmaganligi)
Past**	Bank faoliyati (vazifalari va funksiyalari) to'liq avtomatlashtirilganligi
	bank faoliyati (vazifalari va funksiyalari) to'liq tartibga solinganligi
	jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan bevosita aloqa qilish imkoniyati mavjud emasligi
	davlat tashkilotining faoliyati (vazifalari va funksiyalari) doirasida qaror loyihasini tayyorlash, ko'rib chiqish va qabul qilishda uch yoki undan ortiq shaxsning ishtiroki
	korrupsiya aktining mavjud emasligi va korrupsiya qilmishi sodir etilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar

*Bankning faoliyati (vazifalari va funksiyalari)da KOND tomonidan aniqlangan xavf bank Boshqaruvi raisi bilan kelishilgan holda yuqori yoki o'rtta tavanakkalchilik darajasida baholanadi.

** Bank faoliyatida (vazifasi va funksiyalarida) aniqlangan korrupsiya xavfi darajasini baholashda, agar past darajadagi mezonlardan biri mavjud bo'lsa, korrupsiya xavfining bunday darajasi past deb baholanadi.

“Mikrokreditbank” ATBning korrupsiya xavflarini
baholash va aniqlash uslubi to‘g‘risidagi nizomga
3-sonli Ilova

“Mikrokreditbank” ATBning Korrupsiya xavflar xaritasi

Turi	Biznes jarayon	Ehtimoliy korrupsiya sxemaning qisqacha ta’rifi	Korrupsiya xavflarga moyil lavozim	Xavfni minimallashtirish choralari	Mas’ul ijrochilar
		•	•	•	•
		•	•	•	•
		•	•	•	•
		•	•	•	•

“Mikrokreditbank” ATBning korrupsiya xavflarini
baholash va aniqlash uslubi to‘g‘risidagi nizomga
4-sonli ilova

“Mikrokreditbank” ATBning Korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi

№	Korrupsiya xavflarini bartaraf etish choralari	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Mas’ul ijrochilar